

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

*Axmedov Muhammadjon Inomjon o'g'li
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

ANOTATSIYA

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida jamiyat hayotiga yangiliklarning kirib kelishi, inson mehnatining takomillashishi, qulaylikka ega bo'lishi, yangilanib borishiga bo'lgan ehtiyoj ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunga kelib ta'lim sohasida shu davrgacha erishilgan yutuqlarni asrab-avaylagan holda ma'lum stereotiplardan voz kechish vaqtি keldi.

Kalit so'zlar: texnologiya, pedagogika, ta'lim, zamonaviylik

Bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlatning ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llash uchun, zamonaviy texnologiyalarini ta'lim jarayoniga olib kirish, hamda texnologiyaga ishlab chiqarish jarayonlarini tasvirlash, ularni bajarish bo'yicha qo'llanmalar, texnik qoidalar va talablar, grafiklarini olib kirish zarur. Ushbu jarayonda pedagogik texnologiyani qo'llagan holda o'quvchilarning o'qish motivini o'stirish va ularning fanni o'zlashtirishga qiziqish va ehtiyojini tarbiyalashga qaratilgan sayyi harakatlar o'z aksini bermoqda. Shuningdek har bir malakali o'qituvchining dars jarayonida foydalanadigan inovatsion metodlari bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar ko'pincha darslarida noananaviy texnologiyalardan foydalanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilim beruvchini (o'qituvchi) va bilim oluvchini (o'quvchi) ta'lim jarayonida faol bo'lishini, ongini batamom o'zlashtirayotgan o'quv materialiga qaratishni taqoza etadi. O'qituvchi, ayniqsa ta'lim mazmunini texnologik loyiha aylantirish jarayonida, o'ta chuqur bilimga ega bo'lishi, eng kichik detallargacha e'tiborida saqlashi va ularni loyiha mazmuniga kiritishga erishmog'i darkor. Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya: ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, Pedagogik texnologiyar, axborot texnologiyasi, yangi tajriba va ta'lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li bo'lib hisoblanadi.

Keyingi yillarda pedagogik texnologiya har xil mualliflar turli xil ta'rif bermoqdalar. Bu ta'riflar har bir muallifning pedagogik texnologiyaga turlicha yondashuvidan darak beradi. Ulardan ba'zilari:

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

V.P.Bespalko: «har qanday faoliyat yoki texnologiya, yoki san'at bo'lishi mumkin. San'at ichki sezgi (intuitsiya)ga, texnologiya esa fanga asoslanadi. hammasi san'atdan boshlanadi va texnologiya bilan tugaydi va yana qaytadan boshlanadi» - degan edi.

Pedagogik

adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi:

- 1) ta'lism jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- 2) tizimli yondashuv asosida talabaning o'quv-biluv faoliyatini tavsiflaydigan ta'lism jarayoni loyihasini tuzish;
- 3) ta'lism maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- 4) ta'lism jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsata olishi;
- 5) ta'lism shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- 6) ta'lism jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- 7) o'quvchilarning kuzatiladigan, aniqlanadigan harakatlari sifatida ta'lism maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida oydinlashtirish;
- 8) talabaning faolligiga tayanib o'qitish;
- 9) bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- 10) shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- 11) belgilangan mezonlarga binoan test topshiriqlarini bajarish;
- 12) ta'limning rejalarashtirilgan natijasiga erishish kafolatlanganligi;
- 13) ta'lism samaradorligining yuqoriligi.

Har qanday jamiyatda pedagogik tizimning maqsadi jamiyatning shaxsni shakllantirishga qo'ygan talablari asosida belgilanadi va jamiyat talablari asosida tizim ham o'zgarishi mumkin. Juda ko'p tadqiqotlarga asoslangan holda V.P. Bespalko pedagogik tizimning o'zaro bog'liq 6 ta elementini ko'rsatadi.

- Bular:
- 1) o'quvchi;
 - 2) ta'lism - tarbiyaning maqsadi;
 - 3) mazmuni;
 - 4) didaktik jarayoni;
 - 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
 - 6) ta'lism - tarbiyaning tashkiliy shakllari.


Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Yuqorida aytganimizdek, ta’lim oldiga qo‘yiladigan talablar nihoyatda ulkan. Ta’lim jarayoniga ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni qo‘llamasdan turib bu talablarni bajarish amri mahol.

Biz jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini o‘rganish uchun bir guruh jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga (ja’mi 20 o‘qituvchi qatnashdi) quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

- 1.Ta’limning zamonaviy texnologiyalari deganda nimani tushunasiz?**
- 2.Siz o‘z darslaringizda ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanasizmi?**
- 3.An’anaviy ta’lim bilan pedagogik texnologiyalar asosida o‘tadigan darslar o‘rtasidagi farqni ayting.**
- 4.Interaktiv metodlarni qanday tushunasiz? Misollar keltiring.**

Javoblarni quyidagi mezonlar asosida baholadik:



T/t	“juda yaxshi”;	“yaxshi”	“o’rrta”	“yomon”
1	5	10	15	25

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki biz tadqiqot olib borgan maktablarning ko‘pchiligida zamonaviy texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish sust kechmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar deganda ko‘pchilik mакtabda kompyuterlarning yo‘qligidan shikoyat qiladilar. Shu bilan ta’limda zamonaviy texnologiyalardan

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

foydanmayotganlari oqlamoqchi bo‘ladilar. Vaholanki, ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning 2 xil usuli bor.

Birinchisi kompyuter texnologiyalarisiz, darslarni loyihalashtirib kafolatlangan natijaga erishish bo‘lsa, ikkinchisi, kompyuterlar yordamida darslarni tashkil etish.

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ta’lim-tarbiya jarayonida hisobga olish, ularning shaxsiy sifatlarini bilish, tahlil qilishga yakka tartibda yondashishda hozirgi yosh psixologiyasi va pedagogikasining qoidalari va talablaridan kelib chiqiladi. Bunda o‘quvchilarning tayyorgarliklari, qiziqishlari va fanlarni turlicha o‘zlashtirishlari bilan farqlanishini hisobga olish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda o‘qituvchilarning ham bir-biridan o‘qitish uslubi, o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish bo‘yicha farqlanishini hisobga olgan holda har bir o‘qituvchining optimal natijani aniq bir vaqt mobaynida olishga, ya’ni o‘quvchilarning ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtirishlariga erishish bo‘yicha individual yondashuvlari mavjud.

Xulosa: Mustaqil davlatimizning taraqqiyoti ta’limning barcha sohalaridagi kabi jismoniy tarbiya sohasida ham katta islohotlarni talab qiladi. Raqobatbardosh kadolarni tayyorlash jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishning eng zarur shartidir. Jamiyatning yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun boshlang‘ich sinfdan boshlaboq tinimsiz izlanish, ta’limning yangi samarali usullarini qidirish va kashf qilish zarur.

Bizning

tadqiqotlarimiz asosida turgan konsepsiya ham boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llagan holda o‘quvchilarning o‘qish motivini o‘stirish va ularning fanni o‘zlashtirishga qiziqish va ehtiyojini tarbiyalashdir. Motivning mavjudligi shaxsnинг o‘quv faoliyatga erkin kirishuvi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida erkin muloqotning shakllanishi va tez til topa bilishini ta’minlashga yordam beradi.

Bugungi tadqiqotimizdan quyidagilarni o’rgandik:

Ta’limning zamonaviylishuvi, ilg’or pedagogika, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan individual pozitivligi va darsda qo’llanishi mumkun bo‘lgan zamonaviy texnologiyalarni, shuningdek- ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llashga oid tajribalar juda kam ekanligiga ishonch hosil qildik.

FOYDALANLGAN ADABIYOTLAR

- АРАББОЕВ, ҚТ. "жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." ФАН-СПОРТГА Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

2. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.
3. Inomov Fakhreddin Ormonovich. (2024). PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR EDUCATION OF STUDENTS THROUGH SPORTS COMPETITIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 196–200.
4. Хатамов, Зафарджон Назиржонович, Хамидулло Хабиуллоевич Болтабоев, and Мухаммаджон Ахмедов. "ПОВЫШЕНИЕ УДЕЛЬНОЙ СКОРОСТИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 10.3 (2023): 130-135.
5. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "THE EFFECT OF PHYSICAL ACTIVITY OF DIFFERENT INTENSITY ON THE FEMALE ORGANISM." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.12 (2023): 89-93.
6. Tohirjonovich, Arabboev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.
7. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "THE EFFECT OF PHYSICAL ACTIVITY ON THE BODY OF SCHOOLCHILDREN IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 112-115.
8. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon, and Akhmedov Muhammadjon. "DEVELOPMENT OF TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS OF HIGHLY QUALIFIED BOXERS BASED ON AN INNOVATION CLUSTER." *Лучшие интеллектуальные исследования* 11.2 (2023): 76-85.